

## ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОКСЮМОРОНОВ В ПРОЗЕ МУХАММАДА ЮСУФА

М. Буриева<sup>1</sup>

### Аннотация

В данной статье описаны функционально-семантические характеристики оксюморонов, использованные в «Избранных произведениях» Мухаммеда Юсуфа, народного поэта Узбекистана.

*Ключевые слова:* оксюморон, нелогические связи, антонимия, свойственность.

Yozuvchining o'ziga xos uslubini va badiiy asar tilini jozibador, emotsional-ekspressiv ta'sirchan qilib beruvchi shunday tasviriy vositalar borki, ulardan biri oksyumoronlar hisoblanadi. Tilshunos olim Azim Hojiyev o'zining "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida" oksyumorongga shunday ta'rif beradi: Oksyumoron (yun. Oxyumoron – farosat bilan, lekin be'mani). Mantiqan biri-ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tushunchani (ma'nosi bir-biriga zid ikki so'zni) o'zaro qo'shishdan iborat uslubiy shakl [5.74] deb ta'riflagan bo'lsa, A.Shomaqsudov va boshqalar tomonidan 1983-yilda yaratilgan "O'zbek tili stilistikasi" asarida zidlanish munosabatini ifodalovchi vosita sifatida ta'riflanadi. Ya'ni, "Kishi yoki predmetning tabiati va mohiyatiga xos bo'lmagan zid belgini unga nisbatan qo'llash orqali antonimik munosabat hosil qilish oksimoron deyiladi." [4.51] deb izohlanadi. Izohlardan ko'rinadiki, oksimoron atamasi bir-biriga nomantitdiy jihatdan bog'langan ikki so'zning o'zaro birikib, ko'chma ma'no hosil qilishi tushuniladi. She'rda qo'llanilgan oksyumoronlarning har biri tadqiqotchi S.Umirova ta'kidlaganidek, poetik ma'noni aktuallashtirishga, lirik qahramon kayfiyati, dunyoqarashi va ruhiyatini ochib berishga hamda badiiy matn tilining ravon bo'lishiga xizmat qiladi.[3.22] Demak, oksyumoronlar asosan she'riyatda shoir tilining o'ziga xos uslubini, badiiy mahoratini va poetik individuallikni ifodalashga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bugungi bizning tadqiqot obyektimizga Muhammad Yusufning "Tanlangan asarlari"da qo'llanilgan oksimoronlarni funksional-semantik jihatdan tahlil qilish kiradi.

She'riyat bu qadim buyuk so'qmoq ekan,  
Kiyik so'qmoq ekan, kiyik so'qmoq ekan.  
**Shirin azob** ekan, jonni yoqmoq ekan,  
Bir qo'lda gul bir qo'lingda chaqmoq ekan. [2.13]

Mazkur she'riy parchada shoir she'riyatni *shirin azob* oksyumoroni orqali ta'riflaydi. Ya'ni, shoir ilhom kelgan vaqtda qalbida qandaydir dardni his qilsagina ma'lum bir she'r yarata olishini ta'kidlaydi. Yuragini tirnayotgan tuyg'uni siqib chiqaradi-yu, dil qoni-la oq qog'ozga dardini to'kadi. Mana shu ilhom kelgan vaqtdagi holat, kechinma, tuyg'ular, ko'zyoshlar azob bo'lsa, u tufayli dunyoga kelgan she'rni juda shirin ne'matga qiyoslaydi.

Ilhom kelgan vaqtdagi azob qanchalik kuchli bo'lsa, she'r shunchalik laziz bo'ladi. Biz she'rni bemalol farzandga qiyoslashimiz mumkin. Ming azob evaziga dunyo yuzini ko'rgan she'rga shoir xoh ota, xoh ona bo'lsa ham ism qo'ygani singari, sarlavha tanlaydi. She'rlarini esa bir-biridan ortiq ham, kam ham ko'rmay birdek ardoqlaydi va u bilan bog'liq xotiralar birdek shirinligini ta'kidlaydi. Shoir mazkur holatlarni *shirin azob* oksyumoroni orqali ifodalab beradi

Yana bir she'riy parchada shoir tomonidan muhabbatni ta'riflashda bir-biriga zid keluvchi *go'zal* va *iztirob* leksemalarini birga qo'llab, oksyumoronni hosil qiladi. Bu esa shoirning o'ziga xos individual mahoratini ifodalab beradi.

---

<sup>1</sup>M. Буриева – аспирант, Самаркандский государственный университет, Узбекистан.

Muhabbat, ey, **go'zal iztirob**.  
Ey ko'hna dard, ey ko'hna tuyg'u. [2]

Mazkur she'rd a shoir muhabbatni hech qachon yolg'iz yurmasligini, goh hijron, goh visol, goh orzu, goh armon degan tuyg'ular ham doim unga ergashib yurishini ta'kidlaydi. Oshiq hijron azobida qolib, bir joni ming tilim bo'lsa ham, bu tuyg'udan voz kechmasligini, uni eng go'zal kechinmalariga o'rab, qalbining to'rida saqlashini, shuning uchun ham muhabbat qanchalik iztirobli bo'lmasin, baribir go'zalligicha qolaverishini oksyumoron vositasida tasvirlab beradi.

Siz achchiq qismatim, siz iztirobim,  
Siz **shirin dardimsiz, shirin azobim**.  
Siz mening ko'klardan topgan oftobim,  
Yerlarda yo'qotgan ko'zmunchog'imsiz. [2]

Keltirilgan mazkur she'riy parchada esa shoir, bir satrda ikkita oksyumorondan foydalanadi. Sevgi qanchalik og'ir dard bo'lmasin, qanchalik azob bo'lmasin u baribir insonga insondek yashashni o'rgatadigan buyuk tuyg'u ekanligini, shuningdek hatto muhabbatiga erisholmagan odam ham u haqidagi xotiralarni o'zgacha kayfiyat bilan eslashini, uni yodga olish-da shirin tuyulishini *shirin dard, shirin azob* oksyumoronlari orqali ta'kidlab ko'rsatadi. Shoir tomonidan qo'llanilgan oksyumoronlar she'rning emotsional-ekspressiv tasirchanligini oshirishga xizmat qilib kelgan.

She'riyat  
Ey bevafo sanam!  
Qo'llaringdan mahkam tutarman  
Sendan har narsani kutarman  
Sen bir malham, sen bir **shirin g'am**.  
She'riyat nima uchun bevafo sanamga o'xshashi mumkin...[2]

Ilhom bir kelib, bir kelmay ilhaq qilgani uchunmi? Yoki u ham bir parivash singari ko'ngilga ozor berishdan boshqasini bilmagani uchunmi. Ammo o'sha "jafokash" o'zi telba etgan yurakka o'zi darmon bo'lsachi?.. ilhom kelib ko'ngilni nishlasa, shu ilhom tufayli paydo bo'lgan sher jarohatmand yurakka malham bo'ladi. Shuning uchun ham shoir she'riyatni bevafo sanamga o'xshatadi. Ya'ni, u tufayli paydo bo'lgan ishq o'ti yurakni kuydurib kul qilsa-da, uning bir bor nazar tashlashi o'sha kuyuk yurakdan chechaklar unib chiqishiga sabab bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Shu tufayli ham she'riyatni shirin g'am oksyumoroni orqali tasvirlab beradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning tanlangan asarlarida jami besh o'rinda oksyumoronlar qo'llanilgan. Shulardan bittasi (Qora quyosh) sarlavha o'rnida va uchtasi (shirin dard, shirin azob, shirin g'am) shirin leksemasi orqali hosil qilingan. Oksimoronlarning barchasi *sifat+ot* tipida birikkan bo'lib, shoirning o'ziga xos badiiy mahoratini ifodalovchi, she'rning badiiy estetik qiymatini hamda emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo'llanilgan.

#### Адабиётлар

1. Yo'ldoshev B., Rajabova K. Matn tilshunosligi. - Samarqand: SamDU, 2012. - 125 b.
2. Yusuf M. Saylanma. - Toshkent: "Sharq", 2012.
3. Умирова С.Ўзбек шеърлятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърляти мисолида): Филол. фан лари д-ри (PhD) автореф. - Самарқанд, 2019. - 48 б.
4. Шомақсудов А ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1983, - 51 б.
5. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: ЎзМЭ, 2002. - 74 б.